

SUG'URTA KOMPANIYALARIDA RISK-BASED MANAGEMENT, ERM VA KOMPLAYENS-NAZORATGA ASOSLANGAN INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV KONSEPTSIYASI

Nosirov Jasur Tursunpulotovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD, dotsent, mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0003-4988-4225

Annotatsiya

Ushbu maqolada sug'urta kompaniyalarida risk-based management, Enterprise Risk Management va komplayens-nazorat tizimlariga asoslangan integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasi tadqiq etildi. Tadqiqotda sug'urta faoliyatiga xos moliyaviy, operatsion, regulyator va strategik risklarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Mazkur yondashuvlar yagona boshqaruv arxitekturasi doirasida birlashtirilganda risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish samaradorligi oshishi asoslandi. Shuningdek, komplayens-nazoratning normativ talablar bajarilishini ta'minlashdagi o'rni yoritildi. Tadqiqot natijalari sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashda integratsiyalashgan model muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sug'urta kompaniyalari, risk-based management, ERM, komplayens-nazorat, integratsiyalashgan boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment, korporativ boshqaruv

Аннотация

В статье исследована концепция интегрированного управления в страховых компаниях, основанная на risk-based management, Enterprise Risk Management и комплаенс-контроле. В ходе исследования проанализирована взаимосвязь финансовых, операционных, регуляторных и стратегических рисков, присущих страховой деятельности. Обосновано, что объединение данных подходов в единой архитектуре управления повышает эффективность идентификации, оценки и мониторинга рисков. Также раскрыта роль комплаенс-контроля в обеспечении соблюдения нормативных требований. Результаты исследования показали, что интегрированная модель имеет важное значение для укрепления финансовой устойчивости страховых компаний, повышения эффективности использования капитала и улучшения качества управленческих решений.

Ключевые слова: страховые компании, risk-based management, ERM, комплаенс-контроль, интегрированное управление, финансовая устойчивость, риск-менеджмент, корпоративное управление

Abstract

This article examined an integrated management concept in insurance companies based on risk-based management, Enterprise Risk Management, and compliance control. The study analyzed the interrelationship of financial, operational, regulatory, and strategic risks inherent in insurance activity. It was substantiated that combining these approaches within a unified management architecture increased the effectiveness of risk identification, assessment, and monitoring. The role of compliance control in

ensuring adherence to regulatory requirements was also clarified. The findings showed that the integrated model was important for strengthening financial stability, improving capital efficiency, and enhancing the quality of managerial decision-making in insurance companies.

Keywords: insurance companies, risk-based management, ERM, compliance control, integrated management, financial stability, risk management, corporate governance

KIRISH

Jahonda sugʻurta kompaniyalari moliyaviy tizimning muhim institutsional subyekti sifatida nafaqat risklarni taqsimlash va kompensatsiya qilish, balki investitsion faoliyatni ragʻbatlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda ham muhim rol oʻynaydi. Global moliya bozorlarining integratsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda risklar spektrining kengayib borishi sugʻurta kompaniyalari boshqaruv tizimiga nisbatan yangi, yanada murakkab talablarni qoʻymoqda. Xususan, anʼanaviy risklarni boshqarish yondashuvlari bugungi kunda yuzaga kelayotgan kompleks va oʻzaro bogʻliq xatarlarni samarali boshqarish uchun yetarli emasligi kuzatilmoqda.

Sugʻurta kompaniyalarida risk-based management (riskga asoslangan boshqaruv), Enterprise Risk Management (ERM) hamda komplayens-nazorat tizimlarini integratsiyalashgan holda joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Risk-based management yondashuvi resurslarni ustuvor risk yoʻnalishlariga yoʻnaltirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilsa, ERM tizimi risklarni korxonada miqyosida yagona tizim asosida aniqlash, baholash va monitoring qilish imkonini beradi. Komplayens-nazorat esa faoliyatning amaldagi normativ-huquqiy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqligini taʼminlab, institutsional xavflarni minimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Risklarni boshqarish va moliyaviy xavfsizlik masalalari soʻnggi yillarda sugʻurta kompaniyalari faoliyatida eng muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Xususan, Enterprise Risk Management (ERM) konsepsiyasi korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida keng oʻrganilmoqda. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission tomonidan ishlab chiqilgan ERM modeli risklarni tizimli ravishda aniqlash, baholash va monitoring qilishni nazarda tutadi hamda u kompaniya qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda ERM tizimining joriy etilishi korxonalar moliyaviy barqarorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi asoslab berilgan. Masalan, Grace, Martin F. va hamkorlarining izlanishlari sugʻurta kompaniyalarida ERM tizimi risklarni kamaytirish bilan birga kapitallashuv darajasini oshirishini koʻrsatadi. Shu bilan birga, Hoyt, Robert E. va Liebenberg, Andre P. tadqiqotlarida ERM joriy etilgan kompaniyalarda firma qiymati yuqoriroq boʻlishi empirik jihatdan isbotlangan.

Risk-based management yondashuvi esa resurslarni eng yuqori riskga ega sohalarga yoʻnaltirish orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv

sugʻurta kompaniyalarida underwriting, investitsiya va operatsion risklarni ustuvorlik asosida boshqarishga imkon beradi. Cummins, J. David tomonidan olib borilgan tadqiqotlar riskga asoslangan kapital modeli sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini taʼminlashda muhim omil ekanligini koʻrsatadi.

Komplayens-nazorat tizimi esa moliyaviy institutlar faoliyatining normativ-huquqiy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqligini taʼminlaydi. International Association of Insurance Supervisors tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar (Insurance Core Principles) sugʻurta kompaniyalarida komplayens tizimining institutsional asoslarini belgilaydi. Ilmiy adabiyotlarda komplayens tizimi korporativ boshqaruvni mustahkamlash, korrupsiya va operatsion risklarni kamaytirishda muhim vosita sifatida baholanadi.

Soʻnggi tadqiqotlar uchala yoʻnalish - ERM, risk-based management va komplayens-nazorat - ni integratsiyalashgan holda qoʻllash eng samarali boshqaruv modeli ekanligini koʻrsatmoqda. Biroq, mavjud ilmiy ishlarning aksariyatida ushbu yondashuvlar alohida oʻrganilgan boʻlib, aynan sugʻurta kompaniyalari uchun moslashgan integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasini ishlab chiqish yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli, mazkur maqola ushbu ilmiy boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarda mazkur yoʻnalishlar alohida-alohida oʻrganilgan boʻlsada, ularni yagona integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasi doirasida tadqiq etish yetarli darajada rivojlanmagan. Ayniqsa, sugʻurta kompaniyalari faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari - uzoq muddatli majburiyatlar, yuqori darajadagi noaniqlik va ehtimollik xarakteriga ega risklar mavjudligi - bunday integratsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqishni yanada muhimlashtiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi sugʻurta kompaniyalarida risk-based management, ERM va komplayens-nazorat tizimlariga asoslangan integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasini nazariy va metodologik jihatdan asoslash hamda uning amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada sugʻurta kompaniyalarida mavjud risklar tasnifi tahlil qilinadi, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining oʻzaro uygʻunligi asoslanadi va integratsiyalashgan boshqaruv modelining konseptual asoslari ishlab chiqiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda sugʻurta kompaniyalarida risk-based management, Enterprise Risk Management (ERM) va komplayens-nazorat tizimlariga asoslangan integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasini shakllantirish uchun kompleks ilmiy yondashuvlar qoʻllanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali sugʻurta kompaniyalari faoliyatida yuzaga keladigan risklar oʻzaro bogʻliqlikda oʻrganildi hamda ularni boshqarishning institutsional mexanizmlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasining mazmun-mohiyati shundan iboratki, unda risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish jarayonlari, korporativ boshqaruv tamoyillari hamda Komplayens-nazorat mexanizmlari yagona axborot

maydoni va yagona boshqaruv arxitekturasi doirasida uyg'unlashtiriladi, natijada qaror qabul qilish jarayonining shaffofligi, tezkorligi va asoslanganlik darajasi sezilarli oshadi.

Mazkur konsepsiyaning asosiy tamoyillarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

Birinchi, yagona xavf tili (risk language) va klassifikatsiyasini shakllantirish, ya'ni barcha tarkibiy bo'linmalar darajasida xavflarni identifikatsiya qilish, tavsiflash va baholashda bir xil terminologik apparatdan foydalanishni ta'minlash; bu esa ma'lumotlarning taqqoslanuvchanligi va boshqaruv qarorlarining izchilligini kafolatlaydi.

Ikkinchi, xavflar to'g'risidagi axborot oqimining vertikal va gorizontal integratsiyasini yo'lga qo'yish, ya'ni kuzatuv kengashidan tortib ijro etuvchi bo'linmalargacha bo'lgan barcha boshqaruv pog'onalarida uzluksiz kommunikatsiya zanjirini shakllantirish orqali risklar haqidagi ma'lumotlarning o'z vaqtida va to'liq yetkazilishini ta'minlash; bunda institutsional shaffoflik va javobgarlik mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi, risk-menejment va Komplayens funksiyalarini strategik rejalashtirish jarayoniga organik ravishda integratsiya qilish, ya'ni risklarni boshqarish masalalarini operatsion darajadagi nazorat vositasi sifatida emas, balki kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantiruvchi omil sifatida ko'rib chiqish.[11]

ERM nazariyasi va amaliyotini korporativ qiymatni maksimallashtirish kontekstida tahlil qilgan Nocco va Stulz mazkur tamoyillarni markazlashgan risk-menejment tizimining fundamental elementlari sifatida talqin etadi hamda integratsiyalashgan yondashuv kompaniya kapitallashuv darajasini oshirish, moliyaviy natijalarning barqarorligini mustahkamlash va investorlar ishonchini kuchaytirish orqali xo'jalik yurituvchi subyekt qiymatini oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.[12]

Shunday qilib, risk-based management, ERM va Komplayens tizimlarining sintezi zamonaviy sug'urta kompaniyasida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, regulyativ talablarni bajarish hamda strategik barqarorlikka erishishning kompleks mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, ularni fragmentar tarzda emas, balki yagona integratsiyalashgan boshqaruv modeli doirasida qo'llash ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Eling tomonidan integratsiyalashgan xavflarni boshqarish tizimining moliyaviy natijalarga ta'sirini empirik baholash maqsadida yaxlit ERM indeksi (composite ERM index) metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur yondashuv doirasida korporativ risk-menejmentning institutsional va funksional yetuklik darajasi bir nechta agregatlashtirilgan ko'rsatkichlar asosida kompleks tarzda o'lchanadi; muallif ushbu indeksni hisoblash uchun quyidagi umumlashtirilgan funksional bog'lanishni taklif etadi:

$$ERM_{\text{index}} = w_1 \cdot RC + w_2 \cdot EC + w_3 \cdot CC + w_4 \cdot SC + w_5 \cdot TC, \quad \sum w_i = 1$$

bu yerda:

RC - regulyatorlik Komplayensi darajasi (0 dan 1 gacha normallashtirilgan ko'rsatkich);

EC - iqtisodiy kapital modelining sifati;

CC - korporativ boshqaruv sifati indeksi;


SC - strategik xavflarni boshqarishning integratsiya darajasi;

TC - axborot-texnologik infratuzilmaning rivojlanganlik ko'rsatkichi;

$w_1 \dots w_5$ - tegishli omillarning og'irlik koeffitsiyentlari bo'lib, ularning yig'indisi birlikka teng.

Mazkur formula integratsiyalashgan boshqaruv tizimini ko'p omilli, vaznlashtirilgan baholash modeli sifatida talqin qilish imkonini beradi, bunda har bir komponent sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuv salohiyatiga turlicha darajada ta'sir ko'rsatadi; shu jihatdan, og'irlik koeffitsiyentlarini aniqlash jarayoni metodologik asoslangan ekspert baholash yoki ekonometrik modellashtirishni talab etadi.

Uchta tizimning integratsiyasi sug'urta kompaniyasi moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning strategik poydevori hisoblanadi



1-rasm. Risk-based management, ERM va Komplayens-nazoratning integratsiyalashgan boshqaruv modeli¹

1-rasmda aks ettirilgan integratsiyalashgan boshqaruv modelida risk-based management, ERM hamda Komplayens-nazorat tizimlari sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan yagona institutsional mexanizmning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida talqin etiladi; bunda risklarni identifikatsiya qilish va baholash jarayonlari strategik rejalashtirish bilan uyg'unlashadi, Komplayens funksiyasi esa regulyativ talablarning bajarilishini nazorat qilish orqali tizimning tashqi muvofiqligini ta'minlaydi.

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda mazkur yondashuvning amaliy tatbiqi tahlil qilinib, xususan, Shennayev X.M. tomonidan O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari faoliyati misolida ichki auditorlik funksiyasining ERM tizimidan tashkiliy jihatdan ajratilganligi, risk-menejment hamda moliyaviy rejalashtirish bo‘linmalari o‘rtasida institutsional hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, shuningdek, Komplayens xodimlarining malaka darajasi xalqaro professional standartlarga, jumladan International Compliance Association talablariga nisbatan past ekanligi kabi tizimli muammolar aniqlangan.

Normativ-huquqiy islohotlarda Adilova G.Dj. tomonidan 2019-yildan boshlab sug‘urta sohasida amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabr O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni¹ qabul qilinishi natijasida risklarni boshqarish va prudensial nazorat mexanizmlarining institutsional asosi sezilarli darajada mustahkamlanganligi ilmiy asosda ko‘rsatib berildi; mazkur huquqiy baza integratsiyalashgan boshqaruv modelini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

Haqberdiyev, B. integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasini amaliyotga joriy etish samaradorligini baholash maqsadida moliyaviy, regulyatorlik va operatsion KPI ko‘rsatkichlarini yagona monitoring platformasida birlashtiruvchi integral tizimni taklif etadi, bu esa risklar dinamikasini real vaqt rejimida kuzatish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi. Xojiboqiyeva, N. esa ushbu modelni milliy sharoitga moslashtirish jarayonida prudensial normativlar, jumladan kapital yetarliligi va to‘lov qobiliyati koeffitsiyentlarining amaldagi regulyator - Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan talablar bilan uzviy integratsiyasini ta‘minlash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.[13]

Korporativ darajada esa Murtazayev N.R. tomonidan ilgari surilgan “integratsiyalashgan xavf tili” (common risk language) konsepsiyasi alohida e‘tiborga loyiq bo‘lib, unga ko‘ra risklarga oid tushunchalar va baholash mezonlari kompaniyaning barcha ierarxik darajalarida bir xil talqin qilinishi hamda korporativ madaniyatning ajralmas qismiga aylanishi lozim, aks holda metodologik parchalanish boshqaruv samaradorligini pasaytiradi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda xavflarni agregatsiyalashning ilg‘or usullari ham keng yoritilgan bo‘lib, xususan, McNeil, Frey va Embrechts tomonidan kopula modellashtirish asosida ishlab chiqilgan yondashuv sug‘urta portfelidagi diversifikatsiya effektini (Div) miqdoriy baholash imkonini beradi hamda yalpi kapital talabi (SCR) ko‘rsatkichining 15-25 foizgacha kamayishi mumkinligini empirik jihatdan asoslaydi; bu esa integratsiyalashgan risk-menejment tizimining nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki kapital samaradorligi nuqtayi nazaridan ham muhimligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Baranoff integratsiyalashgan boshqaruv tizimini joriy etishda kompaniyaning risk-appetit (xavfga moyillik) darajasi hamda moliyaviy imkoniyatlari

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabr O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-5739117>

oʻrtasidagi muvozanatni inobatga olish zarurligini taʼkidlab, strategik maqsadlar bilan uygʻunlashtirilmagan risk-menejment tizimi kutilgan natijani bermasligini qayd etadi.

Xulosa tariqasida taʼkidlash joizki, risk-asoslangan boshqaruv, ERM va Komplayens-nazorat elementlarining sintezi zamonaviy sugʻurta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini taʼminlash, kapitallashuv darajasini oshirish hamda regulativ muvofqlikni kafolatlashning strategik poydevori sifatida namoyon boʻladi; garchi mazkur konsepsiyaning nazariy asoslari COSO ERM, International Organization for Standardization tomonidan qabul qilingan ISO 31000:2018 standarti hamda Solvency II Directive talablari doirasida yetarli darajada shakllangan boʻlsa-da, uning Oʻzbekiston sugʻurta bozori uchun moslashtirilgan milliy modeli hali toʻliq institutsionallashtirilmagan.

Integratsiyalashgan boshqaruvning milliy modelini ishlab chiqish jarayonida institutsional infratuzilmani takomillashtirish, kadrlar salohiyatini xalqaro professional sertifikatlash tizimlari (CERA, FRM) orqali mustahkamlash hamda raqamli axborot infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi kompleks chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish zarur boʻlib, mazkur masala dissertatsiyaning keyingi boʻlimlarida izchil va batafsil tahlil qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekistonda sugʻurta kompaniyalarining rivojlanish dinamikasi tahlili shuni koʻrsatadiki, sugʻurta bozori yuqori surʼatlarda kengayib borayotgan boʻlib, bu jarayon nafaqat hajmiy oʻsish, balki tarkibiy va sifat oʻzgarishlari bilan ham tavsiflanadi. Xususan, sugʻurta mukofotlari hajmining sezilarli darajada ortishi bozor ishtirokchilarining faollashuvi, sugʻurta xizmatlariga boʻlgan talabning oshishi hamda iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik institutlarining roli kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, umumiy sugʻurta sektori hali ham ustunlikni saqlab qolayotgan boʻlsa-da, hayotni sugʻurtalash segmentining keskin oʻsishi bozor diversifikatsiyasining chuqurlashayotganini va uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarga boʻlgan qiziqish ortayotganini koʻrsatadi.

Tahlil natijalari sugʻurta toʻlovlari dinamikasining mukofotlar oʻsishidan pastroq surʼatda shakllanayotganini ham namoyon etdi. Bu holat bir tomondan sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va rentabelligi oshayotganini bildirsa, ikkinchi tomondan kelgusida majburiyatlar sifatini boshqarish, sugʻurta zaxiralarini shakllantirish va risklarni adekvat baholash zarurligini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, hayotni sugʻurtalash segmentida toʻlovlar va majburiyatlar dinamikasidagi nomutanosiblik ushbu yoʻnalishda mahsulotlar strukturasi takomillashtirish va aktuariy hisob-kitoblarni chuqurlashtirish lozimligini anglatadi.

Sugʻurta majburiyatlari hajmining oʻsishi, ayniqsa ixtiyoriy sugʻurta segmentida, bozorning kengayishi bilan bir qatorda kompaniyalar zimmasidagi risk yukining ham ortib borayotganini koʻrsatadi. Shu sababli sugʻurta tashkilotlarida risk-menejment tizimini takomillashtirish, kapital yetarliligini taʼminlash hamda prudensial nazorat mexanizmlarini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bozorning sifat jihatdan rivojlanishi uchun sugʻurta portfelini

diversifikatsiyalash, innovatsion sugʻurta mahsulotlarini joriy etish va raqamli texnologiyalarni keng qoʻllash ustuvor yoʻnalishlardan biri boʻlib qoladi.

Umuman olganda, Oʻzbekistonda sugʻurta bozori barqaror rivojlanish trayektoriyasiga ega boʻlib, uning kelgusidagi samaradorligi institutsional islohotlar, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash choralarining davomiyligi hamda sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini taʼminlash darajasiga bevosita bogʻliqdir. Mazkur tadqiqot natijalari sugʻurta bozorining strategik rivojlanish yoʻnalishlarini aniqlash, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim asos boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Hoyt, R. E., & Liebenberg, A. P. (2011). The value of enterprise risk management. *Journal of Risk and Insurance*, 78(4), 795-822. <https://doi.org/10.1111/j.1539-6975.2011.01413.x>
2. Beasley, M. S., Clune, R., & Hermanson, D. R. (2005). Enterprise risk management: An empirical analysis. *Accounting Horizons*, 19(4), 521-531. <https://doi.org/10.2308/acch.2005.19.4.521>
3. Grace, M. F., Leverty, J. T., Phillips, R. D., & Shimpi, P. (2015). The value of investing in enterprise risk management. *Journal of Risk and Insurance*, 82(2), 289-316. <https://doi.org/10.1111/jori.12022>
4. Pagach, D., & Warr, R. (2010). The effects of enterprise risk management on firm performance. *Risk Management and Insurance Review*, 13(2), 173-203. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6296.2010.01177.x>
5. McShane, M. K., Nair, A., & Rustambekov, E. (2011). Does enterprise risk management increase firm value? *Journal of Accounting, Auditing & Finance*, 26(4), 641-658. <https://doi.org/10.1177/0148558X11409160>
6. Cummins, J. D., & Weiss, M. A. (2014). Systemic risk and the U.S. insurance sector. *Journal of Risk and Insurance*, 81(3), 489-528. <https://doi.org/10.1111/jori.12039>
7. Arena, M., Arnaboldi, M., & Azzzone, G. (2010). The organizational dynamics of enterprise risk management. *Accounting, Organizations and Society*, 35(7), 659-675. <https://doi.org/10.1016/j.aos.2010.07.003>
8. Bromiley, P., McShane, M., Nair, A., & Rustambekov, E. (2015). Enterprise risk management: Review, critique, and research directions. *Long Range Planning*, 48(4), 265-276. <https://doi.org/10.1016/j.lrp.2014.07.005>
9. Eckles, D. L., Hoyt, R. E., & Miller, S. M. (2014). The impact of enterprise risk management on the marginal cost of reducing risk. *Journal of Banking & Finance*, 43, 247-261. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2014.03.012>
10. Power, M. (2009). The risk management of nothing. *Accounting, Organizations and Society*, 34(6-7), 849-855. <https://doi.org/10.1016/j.aos.2009.06.00>
11. Nocco, B. W., & Stulz, R. M. (2006). Enterprise Risk Management: Theory and Practice. *Journal of Applied Corporate Finance*, 18, 8-20. <https://doi.org/10.1111/j.1745-6622.2006.00106.x>

12. http://mkidn.gov.pl/media/docs/pol_obronna/20150309_3-NZ-AUST-2004.pdf

13. Xojiboqiyeva, N. (2024). Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya tizimi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish masalalari. *Science Technology & Digital Finance*, 2(4), 97-101. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14027864>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**